



Xolmurodov Islomiddin Xasan o‘g‘li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI TAYANCH DOKTORANTI “HAYRATU-L-ABROR” DOSTONIDA KOMIL INSON VASFI

Bugungi kunimizda jamiiki xalqimiz qalbining tub-tubida she’riyat mulkining sultonni, mutafakkir va davlat arbobi bo‘lmish Alisher Navoiyga bo‘lgan o‘zgacha hurmat va ehtiromni, samimiyl tuyg‘ularni oldingidanda yuksak darajaga chiqqanligining guvohi bo‘lib turibmiz. Bu ham, albatta, bejizga emas. Asrlar davomida bu qadar ulug‘lanishga, hurmat ko‘rsatilishga sazovvor bo‘lishi uchun inson buyuk istedod va mahorat sohibi bo‘lish lozim. Bu borada adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning Navoiy haqida bir hikoya orqali ifodalagan go‘zal iqtibosini keltirib o‘tish joizdir:

“Qadim Hindistonda afsonaviy bir qush bo‘lgan ekan. faqat quyosh shulasidan ozuqlanadigan bu qushning ovozi g‘oyatda sehirli bo‘lganmish. Bu qush ovozi eshitilgan damda odamlarda ruh uyg‘oqligi kuchayarmish. Lekin uning qanday uchishini hech kim ko‘rolmas ekan. Bir kun o‘sha g‘aroyib qushdan so‘rashibdi: “Sen qayonga uchasan – o‘ngami, so‘lgami?” U javob beribdi: “Samoga. Yuksakka parvoz qilaman”. Bu hikoyani keltirar ekan olim “Mening tasvvurimda Navoiy she’riytida ham shunday bir qush bor-u faqat yuksakklikka, balandlikka uchadi. Ruhni uyg‘oqlikka va faqat yuksakklikka chorlaydi.”¹ deya fikrini davom ettiradi. To‘g‘ri, bir qarashda olimning aytgan fikrlari Navoiy qalamiga mansub she’riyatgagina aloqadordek ko‘rinadi. Ammo bilamizki, Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” dostoni, xususan, “Hayratu-l-abrор” dostoni aynan she’riy yo‘lda yozilgan. Agar bu jihatidan yondashilsa shoir qalamiga mansub Hayratu-l-abrор dostoni ham aynan o‘sha yuksakklikka qilingan parvoz mahsullaridan biri sanaladi. To‘g‘ri faqat istedod va mahoratning o‘zining kamlik qiladi. Buning uchun, eng avvalo, insonga va insoniylikka munosib bo‘lish hamda xalqqa nihoyat darajada manfaatli ishlarni amalga oshira olish lozim. Alisher Navoiyda aynan mana shu hislat o‘z aksini topgan edi. Navoiy ijodini o‘rganar ekansiz uning asarlaridagi asosiy g‘oya komil insonni tarbiyalash ekanligining guvohi bo‘lasiz. Buni Navoiyning “Hayrat ul-abrор” dostoni hamda unda keltirilgan maqolotlar va shu maqolatlarning sharhi sifatida berilgan hikoyatlaridan yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“Hayrat ul-abrор” dostonini o‘qir ekansiz unda keltirilgan falsafiy, ahloqiy-ta’limiy masalalarining go‘zal bayon etilishi sizni o‘ziga rom etmasdan qolmadi. Doston hikoyatlari o‘quvchiga go‘yoki o‘z aksini ko‘rsatuvchi oina kabi ta’sir o‘tkazadi. Chunki doston o‘quvchiga komillik sari olib boruvchi yo‘lni ko‘rsatadi. Buni dostonda keltirilgan ilk maqolati va unga sharh tariqasida yozilgan dastlabki hikoyatdayoq ko‘rshimiz mumkin. Asarning birinchi bobи “Imon sharhida” deb nomlanadi. Bu bejiz emas, zero dostonning asl g‘oyasi ham – komil inson timsolini madh etishdir, komillikning bosh belgisi, sharti esa, albatta, imondir:

Kimki jahon ahliga inson erur.

Bilki nishoni anga imon erur.²

“Ulug‘ shoir nuqtai nazarida imon –komillikning tayanch belgisi. “Hayratu-l-abrор” birinchi maqolatining imonning badiiy sharhiga bag‘ishlanishi ham shunday dalolatdir. “Xamsa”ning tayanch masalasi insoni komilning zamonlar imtihonidan o‘tishga yaragulik ibratli timsolini yaratish ekan, ulug‘ shoirning mavzu ibtidosini imondan boshlashi tasodif emas, albatta. Imon –islom dargohiga olib boruvchi yo‘l, unga olib kiruvchi eshikdir.”³

Navoiy insoniylikning uch asosiy belgisi borlini ta’kidlaydi. Bular sabr, shukr va hayodir. Kimda bu uch hislat bor bo‘lsagina u haqiqiy insondegan sharaflı nomga loyiq bo‘la oladi:

Bas, ani inson atag‘il beriyo

¹ Ibrohim Haqqul. Zanjirband she’r qoshida. 220-b. Yulduzcha. Toshkent – 1989.

² Vahob Rahmonov “Hayrat ul-abrор” G ‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2020

³ RAHIM VOHIDIY, HUSNIDDIN ESHONQULOV “O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI” O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent –2006



Kim, ishidur sabr ila shukr-u hayo.⁴

Inson kimligini bildik, endi imonning aslida nima ekanligiga to‘xtalib o‘tsak. Imonning oltita sharti mavjud bo‘lib, kimda shu olti shart bo‘lsa o‘zini olti tarafdan himoyalagan bo‘ladi. Navoiy maqolatning shu nuqtasiga kelganida olti shartni bir-bir ochiqlab o‘tadi hamda maqolatning yana bir diqqatga sazovar jihatni namoyon bo‘ladi. Ya’ni olti shartni bayon etgan Navoiy “Kimda shu olti narsaga e’tiqod bor ekan, men ham shunday odamlardan ta’lim oldim” deya ustozlarining imoni komil ekanligini bir eslab o‘tadi. Mazkur maqolatdan so‘ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Unga ko‘ra bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan muridi g‘amginligining sababini so‘raganida shayx ko‘z yoshlarini to‘kib fig‘on ila shunday javob beradi: “Chekayotgan iztiroblarimning boisi shuki, odamlar o‘z dardi bilan to‘s-to‘plon, shikoyat‘u noroziliklar ko‘tarishadiyu, har biriga o‘zi qilayotgan ishi ma‘qul ko‘rinadi. Ulardan birontasini ham chinakam inson deb bo‘lmaydi. Bo‘lsa ham o‘tib ketganlar ichida bo‘lishi mumkindir”. Ustozidan bu xil javobni eshitgan murid iztirob bilan: “Bu olamda haqiqiy inson qolmagan deding, axir sen o‘zingni bu olamon ichiga qo‘shmading-ku” deya savol bergenida shayx o‘zini ham yuz ming sarson sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyoda imon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi. Hikoyatda diniy mavzu bilan birgalikda tasavvufiy qarashlar ham o‘z aksini topgan bo‘lib, bunda tariqatdagi “Xavf” maqomi haqida so‘z boradi. “Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” asarida keltirilishicha, “Xavf” tariqatning oltinchi maqomi bo‘lib bunda solikning nafs makridan qo‘rqishi, shayton nayranglarining ko‘ngilga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shu qadar kuchli dushmanki, solik tariqatdagi tavba, vara, zuhd, faqr, sabr kabi maqomlarni egallagan bo‘lishiga qaramay, nafsning imonga ta’sir qilishi xavfi doimo mavjud bo‘ladi.⁵

Navoiy talqiniga ko‘ra islom davlatida yashashning o‘zigini kishini musulmon qilib qo‘ymaydi. Buni Navoiy dostonning ikkinchi maqoloti bo‘lmish “Islom bobida” maqolatida o‘z fikrini hadis bilan izohlagan xolda yetarlicha ochiqlab beradi. Unga ko‘ra, haqiqiy musulmon deb boshqa insonlar qo‘li va tilidan omon va salomat bo‘lgan odamgagina musulmon sifatini berish mumkin. Bunga isbot tariqasida Navoiy tasavvuf olamida nihoyatda mashxur bo‘lgan go‘zal hikoyatni ya’ni Ibrohim Adham va Robiya Adaviya haqidagi hikoyatni keltirib o‘tadi. Hikoyatda keltirilishicha, shohlikni tark etib, darvishlikni ixtiyor etgan Ibrohim Adham hajga borishni ixtiyor qilib har bir boshgan qadamining shukronasi uchun ikki raket namoz o‘qib boradi. Shu tariqa o‘n to‘rt yilini haj yo‘liga bahshida etgan Ibrohim Adham Makkaga kirsa, Ka‘batullohni o‘z o‘rida topa olmaydi. Haq taologa munojot qilib, hikmatini so‘raganida, Hudoyi taolodan “Bir ojiza shu sahroda yayov yurib kelayotib, shavq-muhabbat yukidan bukchayib notavon bo‘lib qolgan ekan, Ka‘ba uni ziyorat qilish uchun ketdi”, degan xabar keladi. Ko‘p o‘tmay biyobon yo‘lidan kelayotgan Robiya Adaviyani ko‘rib bu ishning hikmatini so‘rasa, Robiya unga Shunday javob beradi:

Senga samar berdi namoz-u riyo,
Menga samar berdi niyoz-u fano.⁶

Bu hikoyatni nihoyatda go‘zal badiiy mahorat bilan keltirgan Navoiy Illoha bo‘lgan chin ihlos va muhabbat har qanday ibodatdan ustun ekanligini ta’kidlaydi. Boshqa tarafdan aralganda esa, aynan shu nuqtada Navoiy komil inson bo‘lishning asl mohiyatini ham ochiqlab o‘tganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Demak haqiqiy ma’noda komil inson bo‘lish uchun chin ma’noda Allah taologa oshiq bo‘lmoq va Uning buyruqlariga itoat qilmoq lozim ekan. Islomiy-tasavvufiy ruhdagi bu kabi buyuk falsafani nihoyatta go‘zal badiiy yo‘l bilan o‘z o‘quvchisiga ochiqlab berishi Alisher Navoiyning qanchalar tafakkur sohibi bo‘lganligining yaqqol isbotidir.

Bundan tashqari Navoiy komil inson timsolini gavdalantirishni maqsad qilar ekan, insonning komil bo‘lishi uchun uning jamiyatdagi qaysi qatlanmda bo‘lishining hech qanday ahamiyati yo‘q ekanligini

⁴ Vahob Rahmonov “Hayrat ul-abror” G ‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2020

⁵ Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova Navoiyshunoslik “Tamaddun”nashriyoti, 2018

⁶ Vahob Rahmonov “Hayrat ul-abror” G ‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2020



o‘quvchilarga doston hikoyatlari orqali zimdan anglatmoqchi bo‘ladi. Dostonda keltirilgan hikoyatlardagi obrazlarga e’tibor qaratsak, bu fikrning yaqqol isbotini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Hikoyatlarda keltirilgan obrazlarni shartli ravishda to‘rt toifaga bo‘lish mumkin:

Birinchi toifa insonlari din va taqvo yo‘lida mashhur bo‘lgan tariqat peshvolari: Shayx Boyazid Bistomiy, Ibroim Adham, Robiya Adaviya, Abdulla Ansoriy, Shayx Faxriddin Iroqiy (9-hikoyat), Shayx Suhravardiyy (12-hikoyat), Imom Faxri Roziy (11-hikoyat), Ayyub ibn Xalaf Xazrajiy(13- hikoyat), Abulloh Muborak (16- hikoyat) , Imom Zaynulobiddin, Xo‘ja Abu Nasr Porso (20- hikoyat)

Ikkinci toyifa insonlari Haq yo‘lida butun davlati-yu savlati bilan jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan podishohlar: No‘siravoni Odil (6- hikoyat), Xorazimshoh (11-hikoyat) Xalifa Mu’tasim(12-hikoyatda) Shoh Iskandar(14-hikoyat), Shoh Bahrom (19-hikoyat)

Uchunchi toyifa hayot yo‘lida insonlarga o‘rnak bo‘la olgan oddiy insonlar toyifasi: Hotami Toyi (5-hikoyat) Qanoatli va qanoatsiz ikki do‘st (7-hikoyat), Ikki vafoli do‘st (8- hikoyat), Yoqut (12-hikoyat), Maymana Isroiliy (15- hikoyat) Chin go‘zali va oshiq yigit (18-hikoyat)

Hamda maqolatlarda keltirilgan falsafiy fikrlarga munosib ilova bo‘la oladigan, to‘rtinchisi, majoziy obrazlar: Sher va durroj(10-hikoyat)

Navoiy ijodiy mahsulining en yorqin namunasi bo‘lmish “Hayrat ul-abror” dostoni haqida qanchalik ko‘p e’tirof etsak, shuncha ozdir. Dostonda ilgari surilgan asosiy g‘oya, bevosita “Xamsa”ning keying dostonlarida ham davom etadi. Xususan, Komil insonga xos adab, hayo, qanoat, sabr, karam, rostlik va vafo kabi xilsaltlar bayon etilgan boshqa hikoyatlarda yangicha talqinda bayon etilganining guvohi bo‘lamiz.

Foydalilgan adabiyotlari

1. Natan Mallayev O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi” nashriyoti 1965
2. Ibrohim Haqqul. Zanjirband she’r qoshida. Yulduzcha nashriyoti Toshkent – 1989.
3. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova Navoiyshunoslik “Tamaddun”nashriyoti, 2018
4. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg’armasi nashriyoti Toshkent – 2006